



XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 14 - oktabr

VI-62-118-11-160-K/22

Toshloq tumani hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 15-iyulidan 17-sentyabriga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri J.Qubonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 20 sentyabrdagi “Tuman byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi KQ-406-IV-sonli qarori ma’lumot

uchun qabul qilinsin.

Ishchi guruh hulosalariga asosan, Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, eng ko'p ovoz olgan hamda "Ochiq byudjet" axorot portalida avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan takliflar "g'olib" deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha,

"Manzilli ro'yhat" 1-ilovaga muvofiq;

Jihozlash tadbirlari bo'yicha tovar (xizmatlar) reestri 2-ilovaga tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik;

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan shahar byudjeti mablag'lari shahar hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo'yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy ro'yxat asosida:

- Tuman hokimligi Moliya bo'limi (J.Qurbonov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbaasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- Tuman hokimligi hisobxonasi (Sh.Muminov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Halq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining 2022 yil 4 fevraldagi KQ-IV-53-19-11-160-K/22-sonli qarori bilan tasdiklangan "Tuman (shahar) byudjetlari mablaglarini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish

tartibi to'g'risida"gi nizomga 3-ilovaga muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (R.Mamajonov) va tuman moliya bo'limi (J.Qurbonov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq byudjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Djurabaev

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2022 yil 14 oktabrdagi
VI-62-118-11-160-K/22-son qaroriga
1-ilova

Toshloq tumani bo'yicha "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha MANZILLI RO'YXAT

№	G'olib taklif ma'lumotlari						Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan mablag'	Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
	Taklif ID raqami	Taklif turkumi	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To'plagan ovozlari soni			
			Toshloq tumani jami		xxx	22 355	4 750	4 750	
1	1450600027	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Toshloq tumani axolisiga sifatli, zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida Markaziy shifoxona qabul diagnostika bo'limiga 1 dona zamonaviy UTT hamda zamonaviy raqamli rentgen aporatlari olish kerak	Toshloq tumani Shodlik MFY	Jihozlash	3846	950	950	Toshloq tuman tibbiyot birlashmasi

2	1450600019	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Toshloq tumani 51-umumiy o'rta ta'lim maktabi issiqlik tizimini isitish qozonlari bilan almashtirish	Toshloq tumani Quyi Yakkatut MFY	Ta'mirlash	3784	800	800	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
3	1450600136	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Toshloq tumani 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv va yordamchi binolarini isitish tizimini ta'mirlash va isitish qozonlarini almashtirish.	Toshloq tumani Qanjirg'a MFY	Ta'mirlash	3771	900	900	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
4	1450600016	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Toshloq tuman 22-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash	Toshloq tumani Farog'at MFY	Ta'mirlash	3721	1 100	1 100	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
5	1450600018	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Toshloq tumani 3-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash	Toshloq tumani Konizar MFY	Ta'mirlash	3675	500	500	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)
	1450600020	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	Toshloq tumani 45-umumiy o'rta ta'lim maktabini issiqlik tizimi va isitish qozonlarini yangilash.	Toshloq tumani Ko'larik MFY	Ta'mirlash	3558	500	500	Yagona buyurtmachi injineri kompaniyasi (GUKS)

Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashining
2022 yil 14 oktabrdagi
VI-62-118-11-160-K/22-son qaroriga
2-ilova

Toshloq tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID 1450600027 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar)				
Reestri				
				<i>Ming.so'm</i>
T/R	Tovar (xizmat) nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
1	Raqamli rentgen apparat	1	700 000	700 000
2	Zamonaviy UTT apparati	1	250 000	250 000
Loyihani amalga oshirish jami qiymati				950 000